2. Jo‘raboyev S.Y. Baxmal tumaniga umumiy geografik tavsif // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2025. – Vol. 3, No. 5. – P. 291–295. DOI: 10.5281/zenodo.15500211.

3. Jo‘raqulova N.N. Baxmal tumanining geografik joylashuvi va toponomikasi (1991–2024) // Academic Research in Modern Science. – 2025. – Vol. 4, No. 34. – P. 58–62. DOI: 10.5281/zenodo.15654475.

4. Jumanov L.B. Baxmal tumani hududining tabiiy geografik xususiyatlari // Geografiya: tabiat va jamiyat. – 2022. – № 2. DOI: 10.5281/zenodo.7505084.

5. Mieczkowski Z. The Tourism Climatic Index: A Method of Evaluating World Climates for Tourism // The Canadian Geographer. – 1985. – Vol. 29, No. 3. – P. 220–233. DOI: 10.1111/j.1541-0064.1985.tb00365.x.

6. Xasanov X.T. Turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘llari, muammolari va yechimlari (Baxmal tumani misolida) // Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2023. – Vol. 1, No. 1.

FARG‘ONA VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Madraximov Ablazbek Erkinjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
Xoliqov Xasanjon Imomnazar o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, 1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmining ahamiyati va uni rivojlantirish salohiyati bo‘yicha masalalari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, ziyoratgohlarga eng boy hududlardan biri bo‘lgan Farg‘ona viloyatining ziyorat maskanlari, ularni jahon andozalari asosida obodonlashtirish, ta’mirlash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar xususida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, Farg‘ona viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ziyorat turizmi, ziyorat maskanlari, diniy turizm, muqaddas qadamjoylar, maqbaralar*

Kirish*:* Ziyorat qilish ming yillar oldin vujudga kelgan dastlabki sayyohlik harakatlari hisoblanadi. Zamonaviy turizm nisbatan yangi soha sifatida qaralsa-da, uning kelib chiqishi qadimiy ziyorat amallariga borib taqaladi. Ziyorat turizmi – bu diniy turizmning kichik turi bo‘lib, bunda ziyoratchi shunchaki diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, diniy yodgorliklar va ashyolarni tomosha qilishdan tashqari, diniy yoki ma’naviy maqsadlarda sayohatga boradi. Ziyorat – bu qadimiy harakatchanlik shakli bo‘lib, zamonaviy va ziyorat turizmlarining asosi hisoblanadi, shuningdek, sayyohlarni diniy qarashlari va urf-odatlariga kuchli tarzda turtki beradi [2; 8].

Hozirgi kunda sayyoramizning barcha mamlakatlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun qattiq bel bog‘laganlar. Jahon sayyohlik tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili dunyodagi asosiy ziyoratgohlarga ziyorat qilish maqsadida 300 milliondan 330 milliongacha sayyoh tashrif buyuradi [10]. Shuningdek, dunyoda olti yuz millionga yaqin milliy va xalqaro diniy sayohatlar amalga oshiriladi. Shulardan eng yiriklari Hindistondagi Kumbh Mela shahrida bo‘lib o‘tadi. Ushbu shaharga har yili o‘rtacha 120 milliondan ortiq ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Bundan tashqari, musulmonlar hayotida bir marta tashrif buyurish talab qilinadigan Makka shahridagi haj ziyorati amallari ham dunyodagi eng yirik ziyorat turizm markazlaridan biri hisoblanadi. [12]

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatori O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining boy tarixi, madaniyati, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan olimu allomalari, beqiyos madaniy meros obyektlari, qadimiy me’morchilik, hunarmandchilik va pazandachilik san’ati bilan bir qatorda, ziyorat turizmi yo‘nalishida ham yuksak salohiyatga ega mamlakat

hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekistonda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shahar — “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. [9]

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning qadimiy diniy markazlaridan biri bo‘lib, unda yuzlab muqaddas qadamjolar mavjud. Ushbu maskanlar nafaqat diniy e’tiqod nuqtayi nazaridan, balki turizm salohiyati jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Ziyorat turizmi orqali Farg‘ona viloyati nafaqat mahalliy sayyohlar, balki xorijiy mehmonlar uchun ham qiziqarli va tarixiy turistik yo‘nalishga aylanib bormoqda. [2; 9;]

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizmning barcha yo‘nalishlari qatori ziyorat turizmi ham rivojlanib bormoqda. Ushbu turizm turi orqali fuqarolar diniy va tarixiy maskanlarga sayohat qilish, ularning tarixi bilan tanishish hamda ulardan ma’naviy saboq olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, ziyorat turizmi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. [7]

Biroq ushbu sohani rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Shu bilan birga, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ziyorat turizmi O‘zbekistonda turizmning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi, tarixiy obidalarning restavratsiya qilinishi va ziyorat turizmining ommalashuvi ushbu sohaning rivojlanishiga katta turtki berdi.

Mazkur soha nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va ma’naviy nuqtayi nazardan ham muhim o‘rin egallaydi. [9]

Asosiy qism: Viloyat hududida ko‘plab tarixiy obidalar, maqbaralar, masjidlar, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar mavjud bo‘lib, ular aholining diniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur ziyorat maskanlari o‘zining tarixiyligi, me’moriy xususiyatlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan diniy hamda ma’naviy merosi bilan sayyohlarni jalb etish imkoniyatiga ega. [9; 12]

Farg‘ona viloyatidagi ziyorat turizmi resurslari hududning turli tuman va shaharlarida joylashgan. Jumladan, Shohimardon hududidagi ziyorat maskanlari, Burhoniddin Marg‘inoniy yodgorlik majmuasi, Xo‘ja Porso maqbarasi va boshqa tarixiy-diniy obyektlar viloyatning muhim ziyorat turizmi resurslari sifatida e’tirof etiladi. Ushbu maskanlarning ayrimlari islom olamida mashhur bo‘lgan allomalar, mutafakkirlar va diniy ulamolar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning tarixini o‘rganish hamda ziyorat qilish uchun katta qiziqish uyg‘otadi. [1; 9]

Ziyorat turizmini rivojlantirish Farg‘ona viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, ziyoratchilar oqimining ko‘payishi mehmonxona, umumiy ovqatlanish, transport, savdo, gidlik va boshqa turistik xizmatlarga bo‘lgan talabni oshiradi. Natijada mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratilishi, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hamda hudud iqtisodiyotiga qo‘shimcha daromad keltirilishi mumkin. [12]

Farg‘ona viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mavjud tarixiy va diniy obyektlarni yagona turistik yo‘nalishlarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi boshqa hududlarning ziyoratgohlari bilan o‘zaro bog‘langan turistik marshrutlarni ishlab chiqish orqali sayyohlarning hududda qolish muddatini uzaytirish

mumkin. Bunda ziyorat turizmini madaniy-tarixiy, etnografik va ekologik turizm yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirish ham katta imkoniyat yaratadi.[10]

Viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirishning yana bir muhim imkoniyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash va ularni zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan ta’minlashdan iborat. Ziyoratgohlarga olib boruvchi yo‘llarni yaxshilash, hududlarda sanitariya va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, axborot ko‘rsatkichlari va turistik belgilarni o‘rnatish, ziyoratchilar uchun dam olish va xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish turizm jozibadorligini oshiradi. [6;]

Shuningdek, Farg‘ona viloyatining ziyorat turizmi salohiyatini xorijiy sayyohlarga targ‘ib qilish ham muhim hisoblanadi. Buning uchun ziyoratgohlar haqida o‘zbek, rus, ingliz va boshqa xorijiy tillarda ma’lumotlar tayyorlash, elektron xaritalar va raqamli turistik platformalardan foydalanish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda viloyatning ziyorat maskanlarini keng targ‘ib qilish maqsadga muvofiq. Bu esa Farg‘ona viloyatini xalqaro ziyorat turizmi yo‘nalishlaridan biriga aylantirish imkoniyatini oshiradi. [9;]

Shu bilan birga, ziyorat turizmini rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim ziyorat maskanlarida turistik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali gid va tarjimonlarning kamligi, obyektlar to‘g‘risidagi axborotlarning yetarli emasligi hamda ayrim tarixiy obyektlarni ta’mirlash va saqlash zarurati sohaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur muammolarni bosqichma-bosqich hal etish Farg‘ona viloyatida ziyorat turizmining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. [8; 10; 12]

Umuman olganda, Farg‘ona viloyati ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlari bilan, jumladan, tarixiy, diniy, madaniy va tabiiy salohiyatga ega. Mavjud ziyoratgohlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularni muhofaza qilish, turistik infratuzilmani takomillashtirish va samarali targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish orqali viloyatning ziyorat turizmidagi o‘rnini yanada mustahkamlash mumkin. Xususan ularni qayta tamirlash ham ziyoratchilar sonini oshishiga va ziyorat turizimi rivojanishiga katta hissa qo‘shiladi. [6]

Farg‘ona viloyati qadimiy tarixi, boy madaniy merosi va ko‘plab diniy-ma’naviy maskanlari bilan O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega hududlardan biridir. Viloyatda joylashgan maqbaralar, masjidlar, ziyoratgohlar va tarixiy obidalar nafaqat diniy ahamiyatga, balki muhim tarixiy va turistik qiymatga ham ega. Ushbu obyektlardan samarali foydalanish Farg‘ona viloyatining turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmini rivojlantirish orqali hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish mumkin. Xususan, yangi turistik yo‘nalishlarni tashkil etish, ziyoratgohlar atrofida infratuzilmani yaxshilash, transport va xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, malakali gidlarni tayyorlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sohaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, Farg‘ona viloyatidagi ziyorat maskanlarini boshqa turizm turlari bilan uyg‘unlashtirish, ularni yagona turistik marshrutlarga birlashtirish va mahalliy hamda xorijiy sayyohlar orasida keng targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, viloyatning diniy va tarixiy merosini asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy turizm talablari asosida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish zarur.